



**Xalqaro munosabatlar tizimida xalqaro va mintaqaviy
tashkilotlarning roli va ahamiyati**

Tojiddinova Azima

O'zMU Siyosatshunoslik

yo'nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Globallashuv sharoitida jahon siyosiy maydonida xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarning roli tobora ortib bormoqda. Mamlakatlar rivojida, ularning siyosiy, iqtisodiy taraqqiyotida mazkur tashkilotlarning o'rnini beqiyosdir. Ushbu maqolada xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarning xalqaro munosabatlar tizimida tutgan o'rnini tahlil qilingan. Maqolada xalqaro tashkilotlar tushunchasining mohiyati yoritilib, ularning klassifikatsiyasi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: xalqaro tashkilot, mintaqaviy tashkilot, BMT, xalqaro munosabatlar, globallashuv, integratsiya, xalqaro birlashmalar, klassifikatsiya, xalqaro shartnomalar.

Xalqaro munosabatlar bugungi kunga kelib murakkab va dinamik jarayonga aylanib ulgurdi. Hozirgi kunda xalqaro munosabatlar o'z ichiga xalqaro aktorlarni qamrab oladi va ulardan eng ahamiyatlisi xalqaro tashkilotlar hisoblanadi. Zamonaviy xalqaro munosabatlar nazariyasi o'z o'rnida jahon hamjamiyatining integratsiyasiga qaratilgan bo'lib, davlatlarning, mintaqaviy tashkilotlarning va xalqaro tashkilotlarning ko'p tomonlama munosabatlarini o'rganadi. Xalqaro munosabatlar tizimida xalqaro tashkilotlar muhim rol o'ynaydi va ular davlatlar va boshqa xalqaro aktorlar hamkorlikni rivojlantirish, global muammolarni bartaraf etish va barqaror tinchlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Tez



sur'atlarda rivojlanib borayotgan xalqaro munosabatlar tizimida xalqaro tashkilotlar ko'p tomonlama diplomatik aloqalarni chuqur tahlil qilishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Xalqaro tashkilotlar – bu siyosiy , iqtisodiy, huquqiy, madaniy, fan-texnik va shu kabi sohalarda umumiy hamkorlikka erishish maqsadida tuzilgan birlashmalardir. Ular xalqaro shartnomaga asoslanadi va xalqaro huquq normalariga muvofiq ravishda tuziladi. Xalqaro birlashmalarning asosiy shartli belgilari: a) ularning faoliyatini belgilovchi hujjatga ega bo'lishi , b) doimiy tuzilma va organlarga ega bo'lishi masalan boshqaruv organi, ijrochi kengashi va boshqarlar, c) davlatlararo hamkorlik , d) a'zolik. Xalqaro tashkilotlar va davlatlar o'zaro munosabatlarining huquqiy negizi sifatida 1969-yil 23-mayda qabul qilingan “davlatlar va xalqaro tashkilotlar yoki o'zaro xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena Konvensiyasi” namoyon etadi. Xalqaro munosabatlar tizimida birinchi xalqaro tashkilot sifatida 1860-yilda tuzilgan “Xalqaro telegraf ittifoqi” tashkiloti e'tirof etilsada xalqaro tashkilotlar ko'rinishidagi davlatlar o'zaro birlashishlari bu davrdan oldin ham namoyon bo'lgan. Xalqaro tashkilotlarning genezisini chuquq tahlil qilish jarayonida ularning shakllanish jarayonini bir necha davrlarga bo'linganiga guvoh bo'lamiz. Rivojlanish davrining birinchi bosqichi:

a) Ilk tarixiy davr deb nomlanib bu davr o'z ichiga qadimgi va o'rta asrlargacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi. Bu davrda xalqaro hamkorlikning dastlabki ko'rinishlari shakllangan bo'lib ular shartnomalar, ittifoqlar va savdo shartnomalari ko'rinishida namoyon bo'ldi. Misol qilib Yunonistonda delian ligasi va o'rta asrlarda Yevropada Hanseatik ligasi savdo va savdo-sotiq konfederatsiyasini keltirishimiz mumkin.

b) Vestifaliya tinchligi (1648-yil) Yevropadagi o'ttiz yillik urushdan so'ng zamonaviy diplomatiyaning shakllanishining zamini bo'ldi. Vestifaliya shartnomasida belgilangan hududiy yaxlitlik va aralashmaslik tamoyillari xalqaro munosabatlar uchun zamin bo'lib xizmat qildi..



c) XIX asr hamkorligi – bu davrda jahon hamjamiyatida mavjud bo'lgan muammolarni hal qilish uchun xalqaro tashkilotlar vujudga kela boshladi. Bu bosqichda Yevropada Napoleon urushlarida so'ng muvozanatni tiklash va davlatlarning Status quo'ga erishish maqsadi 1815-yilda tashkil etilgan Vena Kongressi, 1865- yilda Xalqaro Telegraf Ittifoqi hamda xalqaro aloqani amalga oshirish maqsadida 1874-yilda Unversat pochta ittifoqi kabi tashkilotlar tuzildi.

d) To'rtinchi bosqich Millatlar Ligasi bosqichi hisoblanadi. 1919-yilda Birinchi Jahon Urushidan so'ng mojarolarni oldini olish va jamoaviy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha birinchi global siyosiy tashkilot sifatida Millatlar Ligasi tashkilotiga asos solindi. Garchi Ikkinchi Jahon urushining oldini ololmagan bo'lsada, navbatdagi siyosiy tashkilot uchun zamin bo'ldi.

e) Birlashgan Millatlar Tashkiloti - Ikkinchi Jahon urushidan keyin tinchlik, xavfsizlik, inson huquqlari va rivojlanishni rivojlantirish uchun tashkil etilgan. BMT va uning ixtisoslashgan idoralari (masalan, JSST, YUNESKO) xalqaro hamkorlikning kengayishini belgilab berdi.

f) Mustamlakachilikdan keyingi davr (1945-1970 yillar) Dekolonizatsiya yangi xalqlarning paydo bo'lishiga olib keldi va bu xalqlarning global miqyosda ishtirok etishi uchun platformalarni talab qildi. Natijada Qo'shilmaslik harakati kabi tashkilotlar va Afrika Ittifoqi kabi mintaqaviy organlar tashkil etilishiga olib keldi.

j) Globallashuv va mintaqaviy integratsiya bu bosqich 1980-yillardan hozirgi kungacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu bosqichda o'zaro bog'liqlikning kuchayishi iqtisodiy, ekologik va xavfsizlikka yo'naltirilgan tashkilotlar masalan Jahon savdo tashkiloti (xalqaro savdoni tartibga soladi), Evropa Ittifoqi (mintaqaviy integratsiyani targ'ib qiladi) hamda Ekologik tashkilotlar (iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish uchun IPCC) vujudga keldi.

Xalqaro tashkilotlar ko'p tomonlama hamkorlikda beqiyos ahamiyatga ega. Chunki tashkilotlar o'z faoliyatlarida faqatgina bitta emas balki bir nechta maqsad va vazifalarni



qamrab oladi va a’zo davlatlari o’rtasi ko’p tomonlama hamkorlik shakllanadi. Ularning eng muhim vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Xalqaro muammolar to’g’risidagi axborotni yig’ish , tahlil qilish va ularni tarqatish
2. Normalar belgilash
3. Yangi normalarni tuzish
4. Nazoratni amalga oshirish
5. Operativ faoliyatni amalga oshirish
6. Xalqaro-ijtimoiylashtiradigan vazifalarni bajarish.

Umumiy qabul qilingan xalqaro tashkilotlar klassifikatsiyasiga muvofiq ular birnecha turlarga bo’linadilar:

1. A’zolik harakteriga ko’ra – davlatlararo (hukumatlararo) va nohukmat tashkilotlar
2. Faoliyat sohasiga ko’ra – umumiy kompetensiyaga ega (BMT) va maxsus kompetensiyaga ega (NATO, Xalqaro Mehnat tashkiloti)
3. Ishtirokchilar doirasiga ko’ra – universal (BMT) va mintaqaviy (Afrika birligi tashkiloti)
4. Vakolat harakteriga ko’ra – davlatlararo (YEXHT) va yuqori davlatlar tashkilotlar (Yevropa Ittifoqi)
5. Qabul qilish tartibiga ko’ra – ochiq va yopiq tashkilotlar

Xalqaro hukumatlararo tashkilotlar ham klassifikatsiyaga muvofiq bir necha turlarga bo’linadi:

1. Geosiyosiy mezonga ko’ra:
 - a)Universal (Millatlar Ligasi, BMT);
 - b)Mintaqalararo (Islom hamkorlik tashkiloti, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti);
 - c)Mintaqaviy (Mintaqaviy Hamkorlik uchun Janubiy Osiyo Assotsiatsiyasi);
 - d)Submintaqaviy (Benilyuks);



2. Faoliyat yo’nalishi va sohasiga ko’ra:

- a) Umummaqsadli (BMT);
- b) Iqtisodiy (Yevropa Ko’mir va Po’lat Birlashmasi)
- c) Harbiy-siyosiy (NATO);
- d) Moliyaviy (XVF, Jahon Banki);
- e) Ilmiy (Evrika);
- f) texnikaviy (Telekommunikatsiyalar Xalqaro Ittifoqi);
- j) tor doirali ixtisoslashgan tashkilotlar (O’lchov va Vazn Xalqaro buyrosi).

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak xalqaro tashkilotlar xalqaro munosabatlarning ajralmas bo’lagi hisoblanadi va uning rivojlanishi orqali rivoj topib boradi. Xalqaro tashkilotlarga global siyosiy, iqtisodiy va xavfsizlik masalalarini hal qilish zaruratidan kelib chiqqan. Ularning rivojlanishi xalqaro hamkorlik, tinchlikni ta’minlash, iqtisodiy o’sishni rag’batlantirish va global muammolarni hal qilish zaruratidan kelib chiqadi. Hozirgi kunda xalqaro tashkilotlar xalqaro tizimning asosi sifatida faoliyat yuritmoqda va global baqaror tinchlikni ta’minlashdagi asosiy vositadirlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muminova N. O’quv qo’llanma, Xalqaro tashkilotlar – T. 2014.- 4-25 betlar
2. Madaminova D. O’quv qo’llanma, Xalqaro tashkilotlar nazariyasi va amaliyoti - T,2020. 10-20 betlar
3. International organization: Theories and Institutions J. Samuel Barkin – New York, 2006. 53-79p
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Xalqaro_tashkilot